

5-SINF ADABIYOT DARSLIGIDAGI EZOP, KRILOV, M.XUDOYQULOV
MASALLARINI O'RGATISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARNING O'RNI

Alisherova Mavluda

Namangan davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:05.06.2026

Revised: 06.06.2026

Accepted:07.06.2026

Mazkur maqolada yangi avlod adabiyot darsliklarini o'qitishda grafik organayzerlardan foydalanish va ularning adabiy ta'lim jarayonida samarasi hamda 5-sinf adabiyot darsligidagi Ezop, Krilov, M.Xudoyqulov masallarini o'rgatishda grafik organayzerlarning o'rni tahlil etilgan.

KALIT SO'ZLAR:

ta'lim,grafik
organayzer,
pedagogik
mahorat,masal,
klaster,muammo
"baliq skeleti"

Kirish

Jahonda hech bir soha yo'qki, ta'limsiz mustaqil rivojlana olgan.Rivojlandan davlatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak , har biri ta'lim sohasiga alohida diqqat qaratgan. Bugungi kunda ta'lim bilan bir qatorda texnologiyalar ham tez sur'atlarda rivojlanmoqda.Bu esa yangi davr pedagoglarida kuchli tafakkur bilan bir qatorda yuksak pedagogik mahoratni talab etadi.Shu tufayli mamlakatimizda ta'lim sohasini yuksaltirish hamda yosh avlodning zamonaviy bilimlarni puxta egallashi uchun bir qator chora-tadbirlar ko'rilmoqda .Jumladan,O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2020-yil 23-sentabrda O'RQ 637-sonli "O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risi

Qonuni" tasdiqlandi.Ushbu qonunning 13-moddasida " kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga" [1; 1]. alohida e'tibor qaratildi.Biz bundan shunisi anglashimiz joizki,yangi avlodga ta'lim berar ekanmiz, dastavval hozirgi davrning

zamonaviy texnologiyalar va medotlardan ham samarali foydalanishimiz kerak.Masalan,adabiyot darslarida grafik organayzerlardan foydalanish darsning foydali va mazmunli bo'lishida yordam beradi.

Adabiy tahlillar

Umumta'lim maktablarida adabiyot fanini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda badiiy tafakkur, axloqiy qarashlar va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Ayniqsa, 5-sinf bosqichida o'rganiladigan masallar janri kichik yoshdagi o'quvchilar uchun tushunarli syujet va ibratli xulosalari bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ezop, I.A.Krilov va M. Xudoyqulov masallari orqali o'quvchilarga halollik, mehnatsevarlik, do'stlik, adolat kabi tushunchalar singdiriladi. Aynan masallar o'qitilishi lozim bo'lgan darslarni grafik organayzerlar yordamida tashkil etish mashg'ulotning rang-barang va samarali bo'lishini ta'minlaydi. "Grafik organayzerlar – fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositasi hisoblanadi. Grafik organayzer – ma'lumot va g'oyalarni tushunish va o'zlashtirish uchun qulay tarzda tartibga solingan o'qitish va o'rganish vositasi. Matn va vizual tasvirlarni birlashtirgan holda, grafik organayzerlar - tushunchalar, atamalar va faktlar o'rtasidagi munosabatlar va aloqalarni ko'rsatadi." [2; 1].

Jumladan, Ezop masalaridan klaster usulidan foydalanish o'quvchining masal yuzasidan chiqaradigan xulosalarini yana ham teran bo'lishiga va barcha masallar umumiy maqsad asosida ya'ni insonning yetuk tarbiya topishiga qaratilgani anglaydi.



Ivan Krilov masallarida "Baliq skeleti" usulidan foydalanish axloqiy xulosalarni mustaqil chiqarish ko'nikmalari shakllantiradi, masalaga tanqidiy va shaxsiy yondashishga undaydi.



Muxtor Xudoyqulov masallarini o'rganishda esa "Muammo" metodidan foydalanish o'quvchining shaxsiy fikrlashini o'stiradi va masalaga aniq bir xulosa va yechim berishga undaydi.

"Muammo" texnologiyasi		
Muammoning turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish yo'llari va sizning harakatlaringiz
Mosh va yo'lbarsning ovga chiqishi		

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, 5-sinf adabiyot darslarida Ezop, I.A. Krilov va M. Hudoyqulov masallarini o'rgatishda grafik organayzerlardan foydalanish o'quvchilarning bilish faolligini oshiradi, axloqiy tushunchalarni chuqurroq anglashiga yordam beradi hamda dars samaradorligini ta'minlaydi. Grafik organayzerlar boshlang'ich adabiy ta'limda muhim metodik vosita sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi [O‘RQ-637-sonli Qonuni](#)
2. International scientific and practical conference“Economics, management and digital innovation in education: modern trends and approaches” March 13, 2024 ZAMONAVIY TA’LIM SHAROITIDA GRAFIK ORGANAYZERLARNI O’RNI VA FOYDALANISH USULLARI I Soatova Shoxista Abdumusayevna, 2Yusupova Go‘zal Oybek qizi
3. Adabiyot 5-sinf (2-qism) [Matn] : darslik / Q. Yo‘ldoshev, S. Qambarova, D. To‘xliyeva, N. Yusufjonova, O. Olimjonov – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 128 b.
4. Ezop masallari/Ezop. Tarjimon: Q.Mirmuhamedov.- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. - 80 b.
5. Крилов И. А.Фил ва Лайча, (Масаллар) / [Тўпловчи М. Худойкулов]. — Т. «Ёш гвардия», 1983.-64 б. - (Мактаб кутубхонаси).
6. Худойкулов, Мухтор.Қирқ масал. — Т. нашриёти, 1985. 446.
7. www.ziyouz.com kutubxonasi

